



# NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAMANGAN VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil  
yanvar-dekabr*

*2024-yil yanvar-dekabr davri uchun  
ma'lumotlar dastlabki, o'tgan  
davrlar uchun ma'lumotlar yakuniy  
hisoblanadi*



## NAMANGAN VILOYATINING DOIMIY AHOLISI SONI.

2025- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyatida 2025- yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni **3131,7** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **65,6** ming kishiga yoki **2,1 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **2032,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **64,9 %**), qishloq aholisi soni **1099,6** ming kishi (**35,1 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**3131,7** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+67,6** ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi.

### Shahar



**64,9%**

### Qishloq



**35,1%**

## Namangan viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar.

2024- yil yanvar-dekabr.

	Kishi			har 1000 kishiga	
	2023- yil	2024- yil	o'sish, kamayish	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	84496	81930	-2566	27,9	26,4
Vafot etganlar	13831	14281	450	4,6	4,6
Nikohlar	23264	22333	-931	7,7	7,2
Ajralishlar	4395	4123	-272	1,4	1,3

## Namangan viloyatida tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi.

2024- yil 1-yanvar holatiga



**72,7** yosh



**76,2** yosh


Namangan viloyati aholisining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **74,5** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **72,7** yoshga, ayollar uchun esa **76,2** yoshga teng.

## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi.

2025- yil 1-yanvar holatiga



**50,8%**



**49,2%**



Doimiy aholi soni  
**3131,7 ming kishi**

**1591,9 ming kishi**

**1539,8 ming kishi**

## Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi.

1-yanvar holatiga, ming kishi

	2024- yil	2025- yil	O‘shish sur‘ati, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>3066,1</b>	<b>3131,7</b>	<b>102,1</b>
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	696,5	713,4	102,4
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	136,9	139,8	102,1
Kosonsoy	227,9	233,1	102,3
Namangan	192,7	197,1	102,3
Norin	175,8	179,1	101,9
Pop	235,7	239,9	101,8
To‘raqo‘rg‘on	245,2	250,7	102,2
Uychi	232,4	237,5	102,2
Uchqo‘rg‘on	185,4	188,7	101,8
Chortoq	214,9	219,2	102,0
Chust	285,6	291,4	102,0
Yangiqo‘rg‘on	237,1	241,8	102,0


## Namangan viloyati bo‘yicha aholi zichligi.

Namangan viloyatida 2025- yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometr ga o‘rtacha **420,9** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **8,8** kishiga ortgan (o‘tgan yilning mos davrida 1 kv.km.ga **412,1** kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Namangan shahrida **4756,0** kishi, Namangan tumanida **985,5** kishi, To‘raqo‘rg‘on tumanida **928,5** kishi, Norin tumanida **852,9** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Pop tumanida **82,4** kishi, Mingbuloq tumanida **188,9** kishini tashkil etgan.


### Namangan viloyati bo‘yicha aholi zichligi dinamikasi.

*1 yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*



### Namangan viloyati bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar.

2024 yil yanvar-dekabr



■ Tug'ilganlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-dekabr, kishi

Namangan shahar	20 317	28,8 ‰
Chust	7 399	25,6 ‰
To'raqo'rg'on	6 684	27,0 ‰
Uychi	6 451	27,5 ‰
Kosonsoy	6 167	26,8 ‰
Yangiqo'rg'on	5 925	24,7 ‰
Pop	5 604	23,6 ‰
Chortoq	5 577	25,7 ‰
Namangan	5 306	27,2 ‰
Uchqo'g'on	4 720	25,2 ‰
Norin	4 353	24,5 ‰
Mingbuloq	3 427	24,8 ‰

2024- yil yanvar-dekabr oylarida **81,9** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **26,4** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **-1,5** promillega kamayganligini kuzatildi (2023- yilda **27,9** promilleni tashkil etgan).


Namangan viloyati bo'yicha vafot etganlar.

2024 yil yanvar-dekabr



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 14,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,0 promillega kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,6 promille bo'lgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi.

2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **53,7 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,6 %** i – o'simtalardan, **7,3 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **5,6 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,8 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **1,3 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, **17,9 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

**Namangan viloyati bo'yicha qayd etilgan nikohlar.  
2024 yil yanvar-dekabr**




**Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti.**

Hudud nomi	Nikohlar soni	Koeffitsiyenti (%)
Namangan shahar	5 251	7,4 %
Chust	2 153	7,5 %
To'raqo'rg'on	1 837	7,4 %
Yangiqo'rg'on	1 740	7,3 %
Pop	1 624	6,8 %
Kosonsoy	1 621	7,0 %
Uychi	1 592	6,8 %
Chortoq	1 562	7,2 %
Norin	1 320	7,4 %
Namangan	1 315	6,7 %
Uchqo'rg'on	1 313	7,0 %
Mingbuloq	1 005	7,3 %


2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **22,3** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,5 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,7** promille bo'lgan).

**Namangan viloyati bo'yicha nikohdan ajralishlar.  
2024 yil yanvar-dekabr**



### Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-dekabr, birlik



2024- yil yanvar-dekabr oylarida **4,1** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,1** promille kamayganligini kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr oylarida **1,4** promille bo'lgan)

### Namangan viloyati aholi migratsiyasi.

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **3 314** kishini, Ko'chib ketganlar soni esa **5 355** kishini tashkil etdi.

**Namangan viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar  
va ko'chib ketganlar soni.**

*2024- yil yanvar-dekabr, kishi*

	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar
	jami	jami
<b>Namangan viloyati</b>	<b>3 314</b>	<b>5 355</b>
shahar:		
Namangan shahri	1 334	1 217
tumanlar:		
Mingbuloq	121	186
Kosonsoy	144	286
Namangan	199	277
Norin	320	499
Pop	267	561
To'raqo'rg'on	192	294
Uychi	225	342
Uchqo'rg'on	121	481
Chortoq	86	360
Chust	168	535
Yangiqo'rg'on	137	317


**JAMI KO'CHIB KELGANLAR.  
2024 yil yanvar-dekabr**



■ Ko'chib kelganlar, ming kishi    ● O'sish sur'ati, % da

### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **3,3** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,2** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **0,9** promille bo'lgan).

### JAMI KO'CHIB KETGANLAR.


2024 yil yanvar-dekabr



■ Ko'chib ketganlar, ming kishi    ● O'sish sur'ati, % da

### Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **5,3** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan **0,1** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **1,6** promille bo'lgan).

### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari

tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi**

*Tel: 69 227-84-91*